

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT MUHOFAZASI MASALASI

ВОПРОС ОХРАНЫ ПРИРОДЫ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

THE QUESTION OF NATURE PROTECTION IN THE STORIES OF SHUKUR KHOLMIRZAEV

Xakimova F. X.,

Central Asian Medical University tibbiyot universiteti o'qituvchisi, feruzamadgaziyeva@gmail.com

Xakimova F. X. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT MUHOFAZASI MASALASI. Acta CAMU, 1(ISSN: 2181-4155), 138–141. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7583288>

Annotatsiya. *Tabiat va atrof-muhit haqidagi mulohazali asarlar adabiyotda dolzarb mavzular sirasida aks eta boshladi. Bunga asosiy sabab esa o'tgan asrdan buyon tobora avj olib borayotgan ekologik muammolarning oqibati haqidagi xulosalardir. Jamiyatimizda hayvonot olami, o'simlik dunyosi va boshqa shu kabi qarovga muhtoj tabiat yaratigllari bilan bog'liq muammolar alohida e'tiborga olinib, zaruriy choralar va qonunlar ishlab chiqildi. Bu o'rinda tabiatni asrab-avaylash masalalariga adabiyot ham o'z imkoniyati darajasida yondasha boshladi. O'zbek adabiyotining hikoyanavis adibi Shukur Xolmirzayev asarlarida ham tabiat va inson munosabatlari mavzusida bir qancha dolzarb masalalar yoritildi.*

Kalit so'zlar: *tabiat, hayvonot olami, o'simlik dunyosi, inson va tabiat munosabati, ekologik muammo, uslub, badiiy mahorat, o'ziga xoslik.*

Аннотация. *Вдумчивые произведения о природе и окружающей среде стали отражаться в литературе среди актуальных тем. Основной причиной этого являются выводы о последствиях экологических проблем, нарастающих с прошлого века. В нашем обществе проблемам, связанным с животным миром, флорой и другими существами природы, нуждающимся в заботе, уделяется особое внимание, вырабатываются необходимые меры и законы. В этом месте литература стала в меру своих возможностей подходить к вопросам охраны природы. В произведениях рассказчика узбекской литературы Шукура Холмирзаева был освещен ряд актуальных вопросов на тему природы и человеческих отношений.*

Ключевые слова: *природа, животный мир, взаимоотношения человека и природы, экологическая проблема, стиль, художественное мастерство, оригинальность.*

Annotation. *Works about nature and the environment began to be reflected in literature among current topics. The main reason for this the consequences of environmental problems that have been increasing since the last century. In our society, the problems related to the animal world, flora and other natural creatures in need of care have been given special attention, and necessary measures and laws have been developed. Meanwhile, literature also is approaching the issues of nature preservation to the best of its ability. In the works of Shukur Kholmirezayev, a story writer of Uzbek literature, a number of topical issues on the topic of nature and human relations were covered.*

Key words: *nature, animal world, flora, relationship between man and nature, ecological problem, style, artistic skill, originality.*

Kirish. *Adabiyotda inson va tabiat uyg'unlashuvi aks etgan asarlar azaldan mavjud bo'lgan. Folklor, mumtoz adabiyot, uyg'unish davri adabiyoti hamda zamonaviy adabiyotda ham hamisha inson o'zi tug'ilib o'sgan muhit bilan chambarchas bog'liqligi, butun bir vujudi, ruhiyati ham aynan tabiat mo'jizalari bilan aloqador yashashi juda go'zal dalillar bilan aks ettirilgan. Yaqin o'tmishdan buyon taraqqiyot va muhit talabi bilan insonlarning bir vaqtlar o'zi sig'ingan tabiatga nisbatan hujumkor munosabati avj ola boshladi. Buning natijasida adabiyot ham insoniyatni ogohlantirishni maqsad qilib unga oyna tutkazib, yirik muammolarga sabab bo'layotgan vaziyatlarni obrazlar*

misolida yoritishni boshladi. XX asrning koʻzga koʻringan ijodkorlaridan Ch. Aytmotov, Oʻ. Hoshimov, E. Vohidov, P. Qodirov, Sh. Boshbekov, S. Ahmad, Oybek va shu kabi yirik adiblar oʻz asarlarida tabiat bilan bogʻliq boʻlgan turli muammolarni olib chiqdilar. Ular hayvonot va oʻsimlik dunyosiga, umuman tabiatga zarar keltirayotgan omillar haqida tanqidiy munosabatlarini ochiq namoyon qilishdi. Ana shunday tabiatsevar ijodkorlardan biri boʻlgan Shukur Xolmirzayev asarlari ham bu oʻrinda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning hikoyalarida koʻtarilgan mavzu va gʻoya oʻzining dolzarbligi bilan eʼtiborga molik.

Sh. Xolmirzayev hikoyachiligining endigina shakllanib kelayotgan davrida – 60-yillarda koʻproq asarlar mavzusi uchun tabiat va inson masalasi tanlab olingan. Bu bejiz emas, chunki bolaligi aynan tabiat qoʻynida oʻtgan yozuvchi qalbiga bu mavzu juda yaqin edi. Bu yillarda yaratilgan hikoyalarida adib inson va hayvonot dunyosining, inson va oʻsimlik olamining bir-biriga uzviy bogʻliqligini, ulardan ayro yashay olmasligini, birining ikkinchisiga taʼsirini, tabiatning insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini koʻrsatdi [3, 1052 b.] Shu bilan birga hikoyalarida aynan tabiat bilan bogʻliq boʻlgan muammoli vaziyatlar obrazlar timsolida yoritilgan. Yozuvchi oʻz fikr-munosabatini qahramonlar tili, turli vaziyatlar natijasida taʼsirli aks ettirgan. Adabiyotshunos olim Izzat Sultonning taʼbiri bilan aytganda, adabiyot tasvir predmeti – hayotdir. Sanʼatkor hayotni tasvir etar ekan, koʻpincha hayot hodisalari ustidan hukm chiqaradi va shu uchun uning asari bizga “hayot darsligi” boʻlib qoladi [2, 68 b.]. Kitobxon ekologik muammolar haqidagi rasmiy xabarlar, murojaatlarga qay darajada munosib javob qaytara olishidan qatʼiy nazar, badiiylik mezonlari asosida estetik taʼsir oʻtkazish yoʻli yanada samaraliroq foyda beradi. Adibning ayni shu jihatdan oʻziga xos badiiy mahoratga ega ekanligi hikoyalarida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining oʻlimi” hikoyasida hayvonot olamini himoya qilish mavzusi koʻtarilgan. Hikoya qahramoni Omon timsolida butun fikri xayoli jonzotlarni ovlash, ularga ayovsiz qirgʻin uyushtirish bilan band boʻlgan odam tasvirlanadi. Ayanchli jihati u ov mashgʻulotlarini och qolmaslik uchun emas, bundan oʻzgacha bir zavq tuygani uchun amalga oshiradi: “U oʻzi ham oʻlishi mumkinligini oʻylamasdi. U oʻldirishni... hayvonlarni, parrandalarni, xullas, Olatogʻda ov qilishga arziqli oʻlja borki, u qoʻliga miltiqni olishi bilan oʻzi anglamagan holda, ulardan nimanidir otish – oʻldirishni oʻylardi” [6, 33 b.] Qahramonning xarakter jihati shu darajada shavqatsiz tasvirlanadiki, hattoki ovi yurishmagan kunlari biror ogʻiz oshiqcha gapirgan ayoliga ham miltiq oʻqtashi mumkin edi. Tabiatga nisbatan hech bir goʻzallikni, nafosatni his qilmaydigan Omonning bunday badjahl xakteri kitobxonda nafrat hissini qoʻzgʻaydi. Ayniqsa, yaqindagina koʻpayishgan jonzotlarni ham bolalari bilan birgalikda qirgʻin qilishini aql bovar qilmaydigan vahshiylikka tenglashtirsa boʻladi. Atrof-muhitdagi jamiyki tirik jonzotga nisbatan bu darajadagi sovuqqonlik, kerak boʻlsa oilasiga ham ov kayfiyatidan kelib chiqib munosabat koʻrsatishi hikoya qahramonining bosh xususiyati sifatida namoyon boʻladi. Yozuvchi voqealar davomida Omonga nisbatan yigʻilib borayotgan salbiy munosabatlarga munosib yechim tayinlaydi. Hikoya soʻnggida qoʻl-oyogʻi singan Omon qor uyumiga oʻralib qolib quzgʻunlarga tirikligicha yem boʻladi. Yakunning bu darajada ayanchli tugatilishi ortida adibning bunday insonlarga nisbatan oʻzgacha bir nafrati yaqqol seziladi. Ayni bu kayfiyatni kitobxonga ham yuqtira oladi, toʻgʻri xulosa chiqarishga undaydi. Butun bir tabiatning hech bir yaratigʻidan hayratlanmaydigan, tirik jonzotlarga hech qachon rahm-shafqat koʻzi bilan boqmaydigan, kezi kelsa, oilasi taqdiriga ham befarq qaraydigan inson ana shunday vahshiylarcha oʻlimga munosib. Bu oʻrinda yozuvchi oʻz haqiqatidan tashqari, yana bir haqiqatga eʼtibor qaratishimizni istaydi: tabiat, avvalo, insonni bagʻriga oladi, ulgʻaytiradi, tarbiyalaydi. Uning jamiyki ehtiyojlarini qondiradi. Bir soʻz bilan aytganda ona kabi mehribonlik qiladi. Lekin uni eʼzozlamagan, shafqatsizlarcha munosabat qilganni u ham omon qoʻymaydi, munosib javob qaytaradi.

“Jarga uchgan odam” hikoyasida voqealar rivoji oldidan Boysuntogʻ etagidagi oʻrmon, undagi jonzotlar, qushlar va oʻsimliklar goʻzalligi taʼriflanadi, ular butun bir borliqning ajralmas boʻlagi sifatida tasvir etiladi. Shu oʻrinda hikoya qahramoni Islomning ayni shu tabiat bilan bir tan-u bir jon boʻlib yashashi, umrini mana shu togʻ yonbagʻirlaridagi joʻshqin hayotga baxsh etganligi haqida soʻz boradi. Islom qishloqning redaksiya boʻlimida aynan tabiat haqidagi maqolalari bilan mashhur boʻla boshlagan, bu togʻlar taʼrifi atrofga tarqalishi natijasida taniqli kinorejissyor film olish uchun

qishloqqa tashrif buyurgani aytiladi. Mehmonni tog' tabiati bilan tanishtirish mas'uliyati Islomga topshiriladi. Sayohat so'nggiga yetar vaqtda rejissyor Islomning qattiq qarshiligiga qaramay g'ordagi ona ayiqni terisini shilib olish maqsadida otib o'ldiradi. Bir muddat shok holatida qolgan Islom yetim ayiqlarning zorlanishidan g'azablanib tabiat qotilidan qasd oladi. Adib hikoyadan ko'zlagan maqsadiga erishish uchun o'ziga xos uslubni qo'llaydi. Dastavval kitobxonni jonli tabiatning mislsiz go'zalliklariga oshufta qilishdan boshlaydi, har qanday odam mana shu tirik hayotning bir bo'lagi ekan, tabiat tasviridan o'zgacha zavq tuyadi. Tog' yonbagi'rliliklarida yashab ulg'aygan Islomning butun faoliyati zavqqa to'la ekaniga ishonadi. Hikoya so'nggida kichik bir lahza ichida vaziyatning butunlay boshqa tomonga yuz tutishi insonda hayratni va achinish hissini paydo qiladi. Aslida tabiatsevar Islom qotil emas, u rejissiyorni ayiqni otish fikridan qaytarish uchun ayni o'sha tig'iz pallada har qanday choraga rozi bo'ladi: "...mehmon, siz meni bilmaysiz... Mening onam ham, otam ham, do'stim ham ana shu tabiat. Meni tog' shaydosi deyishadi. Bu xayolni boshingizdan chiqaring. Vaqti-soati kelganda, o'zim birona qarisini otib beraman...yuboraman sizga" [5, 135 b.]. Vaziyat boshqacha tus olgach, o'lgan ona ayiqning pinjiga kirib zorlanayotgan bolalarini ko'rgan Islom chidab turolmaydi, xuddiki tabiatning oldida o'zini juda katta ayb egasi deb biladi va mehmonga zarba beradi. Hikoyada tabiatsevar inson bilan o'z nafsini yo'lida tirik jonzotga umuman rahm-shavqat qilmaydigan ikki inson bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Kundalik turmushimizda shu vaqtgacha insoniyatning ov qilishiga, hayvonlar go'shti va terisidan unumli foydalanishiga tabiiy jarayon sifatida qarab kelingan bo'lsa, hikoyada bu fojia darajasiga ko'tariladi. Aynan yosh bolalari bor bo'lgan ayiqqa nisbatan qilingan hujum qattiq qoralanadi. Qolaversa, bugungi kunda har qanday ov mavsumi uchun qat'iy qonun-qoidalar ishlab chiqilganiga ham ishora qilinadi. Biroq ana shu qonunlarga ham yo'l qoldirmasdan jinoyatga qo'l urgan Islomning xatti-harakatlari kitobxonni o'yga toldiradi. Yozuvchi tabiatni faqat qaysidir qoidalar uchun emas, ana shu tirik jonzotlarning ongli bir a'zosi sifatida asrab-avaylashga, himoya qilishga undaydi.

Xalqimizda tabiatni e'zozlab "ona tabiat" deyish odat tusiga kirgan. Zero borliq tabiat qo'ynida vujudga kelgan, jumladan mavjudotlarning onglisi – odam ham. Ayni vaqtda inson tabiat bilan mudom uzviy aloqada, u o'zining yashashi uchun barcha zaruriy boyliklarni tabiatdan oladi va unga jiddiy ta'sir ko'rsatadi [1,3]. Shunday ekan insoniyatning aynan tabiiy borliq bilan doimiy aloqasi haqidagi baxsli munozaralar yakuniga yetmaydigan mavzular sirasiga kiradi. Aynan adabiyot vakillari bu borada o'ziga xos uslubdan foydalanib ish ko'radi. Adabiyotshunos Hotam Umirov "uslub – yozuvchining voqeilik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual ("o'ziga xos") tarzda yaratish san'atidir. Uslub doim yozuvchining butun borlig'idan – tabiatidan kelib chiqadi va har bir yaratgan asarida ana shu o'ziga xos olamning hayotbaxsh nurini – insoniylashgan tuyg'ularini tiriltiradi, ko'pga ulashadi, ezgu tuyg'ular tarbiyachisi vazifasini o'taydi", [4, 246] deydi. Ayni mana shunday xarakterli jihatlarni Shukur Xolmirzayev asarlarida o'zgacha holatda namoyon bo'lganini ko'ramiz. Adib hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o'zaro aloqasi masalasi yozuvchi ijodiy evolyutsiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o'rinni egallaydi. Bunday hikoyalarning bir qismida tabiatni asrab-avaylash haqida gap ketsa, boshqa bir guruhida tabiat go'zalliklarini tasvirlash bilan birga, inson va tabiat munosabatlari go'zalligini tarannum etuvchi asarlar ko'proq o'rinni egallaganini ko'rinadi, chunki yozuvchi insonda tabiatga munosabat orqali yaxshilikni, ezgulikni, katta bir mehrni ko'rishni istaydi. Bu hol, ayniqsa, inson va hayvonot dunyosi, inson va o'simliklar olami tasvirida yaqqol ko'rinadi [3, 1054 b.]. Yozuvchining "Boychechak ochildi", "Sog'inch" kabi hikoyalarida aynan o'simlik olami bilan insonning o'zaro chambarchas bog'langan rishtalari haqida so'z boradi. Ularda inson yashashi davomida borliq yaratilardan kuch olishi, ulardan zavqlanishi, yiroqlashgani sayin sog'inch tuyishi aks ettiriladi. "Yovvoyi gul" hikoyasi esa ramziy ma'nolarga boy bo'lib, unda inson taqdiri yovvoyi tog' guli bilan qiyoslanadi. "Ot egasi", "Bo'ribosar" hikoyalarida esa inson va hayvonlar o'rtasidagi mehr, bir-biriga bog'lanib qolish, bir-birisiz yashashni tasavvur qilolmaslik tuyg'ulari ta'sirli ifodalanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat, tabiatga bo'lgan ehtiyoj, atrof-muhitni asrab -avaylash kabi masalalar o'ziga xos holatda, mahorat bilan yoritib berilgan. Yozuvchi ayni o'z dilidan kechirgan hissiyotlarini ijod mahsuliga aylantirgani uchun

ham hech bir yozuvchilikiga qiyos etib bo‘lmas asarlar vujudga kelgan. Shu bilan birga, adib ijodi tabiatni muhofaza qilish, asrash kabi dolzarb masalalarga ham munosib javob qaytara olishi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alibekov L. Inson va tabiat. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016.
2. Sulton I. Adabiyotshunoslik nazariyasi, 1-jild. Toshkent: “Fan”, 1978.
3. Tavaldieva G. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini//Academic research in educational sciences, Uzbekistan, Volume 1/ISSUE 4/ 2020, <http://ares.uz> .
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xaqi merosi nashriyoti, 2004.
5. Xolmirzayev Sh. Saylanma 1-jild, hikoyalar, 2001.
6. Xolmirzayev Sh. Saylanma 2-jild, hikoyalar, 2001.